

BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR . YEVROPALIKLARNING DASTLABKI DENGIZ SAYOHATLARI. XRISTOFOR KOLUMB VA UNING SAFARLARI. AMERIKANING OCHILISHI

Jumaboyeva Go'zal To'liboy qizi

Nukus davlat pedagogika instituti

Tarix fakulteti tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

Safarboyeva Zebo Ulug'bek qizi

Nukus davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari bakalavr yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buyuk geografik kashfiyotlar .Yevropaliklarning dastlabki dengiz sayohatlari. Xristofor Kolumb va uning safarlari. Amerikaning ochilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Buyuk geografik kashfiyotlar, Amerika, Xristofor Kolumb, dengiz, ekspeditsiyasi, savdo yo'llari.

Genrix dengizchi. O'rta yer dengizda monopol vaziyatga (huquqga) ega bo'lganligi tufayli Levant savdosidan har holda katta foyda olayotgan italiyalik savdogarlar emas, balki G'arbiy Yevropaning Atlantika okeaniga yaqin turgan Portugaliya va Ispaniya davlatlari Hindistonga boradigan yo'lni qidirib topishdan ko'proq manfaatdor bo'lib chiqdilar. Yevropaliklar, aniqrog'i portugaliyaliklar XIV asrdan boshlab savdo yo'llarini ochishni boshladilar. XIV asrning birinchi yarmiga kelib Portugaliya va Flandriya o'rtasida dengiz savdo aloqalari o'rnatildi. XIV asrning ikkinchi yarmiga kelib portugaliyaliklar Afrikaning Shimoliy – G'arbiy sohillarigacha (Marokko sohillari) yetib bordilar. Genrix 1394 yilda qirol Juan I va Juna Guntalarning to'rtinchi farzandi bo'lib tug'ildi. U yoshligidan arablar va portugallar o'rtasidagi urushlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanib va Afrika haqidagi ajoyib hikoyalarni tinglab katta bo'lgan edi. XV asr boshiga kelib portugaliyaliklar 20 yoshli shahzoda Genrix boshchiligida ommaviy ekspeditsiyalarni boshlab yuborishdi. Keyinchalik «Dengizchi» laqabini olgan shahzoda Genrix o'zining kashfiyotlari bilan portugaliyalik dengizchilarning yangi dengiz yo'llarini ochishlariga katta ta'sir ko'rsatdi. 1415 yilda Portugaliya qo'shinlari O'rta Yer dengizining Gibraltar bug'ozidan chiqish joyidagi mavritanlarning Seuti portini ishg'ol qildi. Ekspeditsiyada 20 yoshli Portugaliya shahzodasi, Genrix Enrike ham bor edi. 1415 yilda Marokka qal'asini ishg'ol qilishda qatnashgan Genrix risarlik unvonini oldi. Seutida u g'arbiy Afrika to'g'risida bir qancha qimmatli ma'lumotlarni bilib oldi. Bu ma'lumotlar uning hayoliga «Bibliya» afsonasidagi Ofir mamlakati, undagi Quddus (Iyerusalim)

ibodatxonasini, oltindan qurgan podsho Solomoni olib keldi. U oltinga to'la daryolarga dengiz yo'li orqali borish maqsadida g'arbiy Afrika bo'ylab safarga chiqdi. Genrix Seutidan vataniga qaytgandan keyin, yarim harbiy va yarim monaxlar jamiyati bo'lgan portugaliyaliklarning «Xristo Ordeni»ga bosh bo'lib qoldi. U Portugaliyaning janubiy – g'arbidagi Sogrish shahriga ko'chib keldi va bu yerda orden mablag'i hisobiga observatoriya va dengizchilar maktabini tashkil qildi. Bu davrda portugal dengizchilari hali dengiz harakatlari bilan ishlashni bilmaganlar. Shu sababli Genrix bu maktabga u katoloniyalik mashhur kartograf Fereruni taklif qildi. Keyinchalik bu maktabdan o'qimishli dengizchilar yetishib chiqa boshladilar. Qirq yillar davomida Genrix ketma-ket Afrikaning Atlantika qirg'oqlariga oltin va qullar keltirish uchun ekspeditsiyalar jo'natadi. Hindiston juda ham uzoq edi, lekin afrikalik qullar va Afrika oltinlari nisbatan yaqin edi. XV asrning 40-yillarida shahzoda Marko Polo kitobi bilan tanishib chiqadi va Hindistonga boradigan dengiz yo'li haqidagi ma'lumotlarni oladi. Portugaliyaliklar tezda Nan va Boyador bug'ozlarini kashf qildilar. 1419 yilda Genrix Dengizchi tomonidan Boyadorga yuborilgan ikki portugaliyalik dvoryanlar adashib qolishib yangi, odam yashamaydigan ajoyib orolchaga kelib qoldilar. Bu orolni shahzoda «Madeyra» (Madeyra-o'rmon) deb nomladi. Shundan keyingi qator yillar davomida portugaliyalik dengizchilar katta tajribaga ega bo'ldilar. 1432 yilda Portugaliya qirg'oqlaridan 1400 km. g'arbdagi Azor orollarining birinchisi topildi. 1434 yilda portugaliyalik bir dengizchi Kanar orollaridan 200 km janubda joylashgan Boyador burniga tushishga muvassar bo'ldi va Genrixga bu yerda o'sgan gullardan namunalar keltirdi. Keyingi 7 yil davomida portugaliyaliklar, yana janubiy – g'arbga siljib, Brakku burnigacha yetib bordilar. 1443 yili Nunyu – Triston boshliq portugaliyaliklar ekspeditsiyasi Blokko burnidan o'tdi va Argin orollarini kashf etdi. Negrlarni ovlash g'arbiy Afrika qirg'oqlaridagi kashfiyotlarni tezlashtirdi. Portugaliyaliklar Arginda birinchi qullar sotadigan faktoriyalarni qurish bilan birga, 1445 (1446) yili Yashil burun orollarini ochdi. Yashil burun Argindan janubga 800 km.ga cho'zilgan. Keyinchalik bu burunni Diash ham kashf etgan edi. Kashf qilingan yerlarda portugallar Yevropa tovarlariga oltin parchalari, fil suyagi, ziravolar almashtirib olishardi. Lekin ularni qiziqtirgan asosiy narsa negrlarni ovlash edi. Qirq yil davomida Genrix Dengizchi ekspeditsiya orqasidan ekspeditsiyalarni Afrikaning Atlantika qirg'oqlariga oltin va qullar keltirish uchun to'xtovsiz yuborib turdi. Genrix tomonidan yuborilgan ekspeditsiya Portugaliyaga Atlantika okeanining sharqiy qismidagi deyarli barcha arxipelaglarni qo'shib oldi, faqatgina Kanor orollari uzoq tortishuvlardan so'ng Ispaniya qo'liga o'tdi. Kashf qilingan orollar Genrix hayot vaqtidayoq metropoliyaga katta foyda keltirdi. Madeyrada shakar qamish o'stirish boshlandi. Azor va Yashil burun orollarida bo'yoq tayyorlaydigan o'simliklar topildi. Genrix Dengizchi sayohatlari geografik bilimlarni kengaytirish nuqtai nazaridan ham juda ahamiyatli edi. Uning davrida Afrikaning

janubiy qirg'oqlari tekshirildi va 3500 km. dan iborat Gibraltar qo'ltig'idan hozirgi Gvineya hududigacha bo'lgan hududlar kartaga kiritildi. Shu paytdan boshlab Afrika maydonlaridan qora tanlilarni ovlash boshlandi. Ularni sotish esa foydali kasb edi.«Xrista ordeni»ning boshlig'i sifatida shahzoda Genrix Rim papasi Yevgeniy IV dan qul savdosi uchun sanksiya (ruxsat, rozilik) olishga intildi. Portugaliya qirol papadan «Hindiston va Efiopiya savdosining hukmdori» degan yorliq olishga muvaffaq bo'ldi.Keyingi yillardagi izlanishlar natijasida portugaliyaliklar tomonidan Fil suyagi qirg'oqlari, Oltin Qirg'oq kashf etildi.1460 yilda Genrix Dengizchi vafot etdi. U Portugaliya tarixida katta iz qoldirdi. 45 yillik faoliyatida, u ko'plab ajoyib dengiz safarlarini uyushtirdi va ko'plab tajribali dengizchilarni yetishtirib chiqardi. U tufayli Portugaliya savdo floti dunyoda birinchi o'ringa chiqib oldi.Genrix Dengizchi ekspeditsiyalarining natijalari va ahamiyati.Shahzoda Genrix tomonidan jo'natilgan ekspeditsiyalar Atlantika okeanining sharqiy qismida joylashgan barcha yirik arxipelaglarni Portugaliya hududiga qo'shib oladilar. Faqatgina Kanar orollari uzoq yillar tortishuvlardan so'ng Ispaniya hududiga o'tadi.Portugaliya orollari hali Genrix hayot davridayoq Metropoliyaga ko'plab daromadlar keltiradi.Genrix dengizchi harakatlari Afrikaning g'arbiy qismini o'rganishga juda katta yordam berdi. Uning davrida Afrikaning g'arbiy qirg'oqlari qo'lga kiritilgan va xaritadan joy olgan. Genrix Dengizchi Afrikadan minglab qullarning olib kelinishiga sababchi bo'ldi. Uning bu harakatlari ishchi kuchiga bo'lgan talabni bir qadar qondirdi. Va nihoyat «Xristos ordeni» homiyligi ostida shahzoda Genrix Rim papasi Yevgeniy IV dan qul savdosini olib borishga ruxsat so'radi va undan rozilik oldi.XV asrning 80 – yillariga kelib Portugaliya hukumati o'z diqqatini yana Afrikaga qarata boshladi. 1482 yilda Oltin Qirg'oqda birinchi Portugaliya koloniyasi bo'lgan Li Mina barpo etildi.Keyinchalik Xristofor Kolumb G'arbiy Hindistonni kashf qilib, Ispaniyaga u yerlarni kolonizasiya qilish huquqi tegkach, Portugaliya hukumati Sharqiy Hindistonga hukmronlik qilish huquqini qo'lga kiritishga shoshildi. 1497 yili Portugaliya tomonidan dengiz yo'llari bo'ylab Afrikani aylanib o'tib, Hindistonni tekshirib kelish uchun eskadra yuborilgan.Bartalomeu Diash (1450-1500). Bartolomeu Diashning to'liq ismi Bartalomeu Diasha di Navalit bo'lib, uning tug'ilgan sanasi to'g'risida aniq ma'lumot saqlanib qolmagan. Uning XV asrning ikkinchi yarmida yashaganligini isbot etuvchi ma'lumotlar ko'p. Bartalomeu Diash Afrikani o'rganishga juda katta hissa qo'shgan yirik dengiz sayohatchilaridan biri hisoblanadi.Bartalomeu Diash 1487 yilda Hindistonga borish uchun Gvineya qo'ltig'i, yaxshi Umid burniga (ikkalasi ham Afrikada) sayohat uyushtirdi. Uning bu qilgan sayohati Yevropaga Afrikaning eng janubiy qismi haqida deyarli to'liq ma'lumot berdi. Uning sayohati kelgusida yangi dunyoning ochilishida zamin bo'lib xizmat qildi.Diashning «Yaxshi Umid» burnida mahalliy aholi bilan birinchi uchrashishi sal bo'lmasa kema ekipajining holokati bilan tugayyozdi. Mahalliy aholi ularni tosh otib kutib oladi.Diash ekspeditsiyasi Janubiy

Afrikanani aylanib o'tib Hind okeaniga chiqdi. Lekin uzoq davom etgan og'ir yo'l mashaqqatlaridan toliqqan dengizchilar safarni davom ettirishdan bosh tortdilar. Portugallarning keyingi Braziliyani ochishga bo'lgan urinishlari davrida 1500 yil 24 mart kuni kuchli dengiz to'foniga duch kelgan kema halokatida Diash ham halok bo'ldi. XVI asrda yashagan mashhur ingliz dengiz sayohatchisi Frensis Dreyk Bartolomeu Diash tomonidan tadqiq etilgan «Yaxshi Umid» burni haqida shunday degan edi. «Ushbu burun dunyoda biz ko'rgan burunlar ichida eng buyuk, eng chiroyli va eng ajoyibidir». Kovilyan ekspeditsiyasi. Portugaliya qiroli Juan II tomonidan 1487 yilda Misrga Kovilyan boshchiligida ekspeditsiya yuborildi. Ekspeditsiyaning asosiy maqsadi Hindistonga boradigan qisqa quruqlik yo'lini topish edi. Kovilyan Qohiradan tuyalarda Qizil Dengizga yetib boradi. U quruqlikdagi qisqa yo'lni ko'p izlab o'tirmasdan, arab kemasiga o'tirib Hindistonning janubiy-g'arbiy qismiga yetib keladi. Hindistonda Janubiy-Sharqiy Afrikaga suzuvchi arab dengizchilari bilan tanishadi va o'zi ham shu yerga borishni hohlaydi. Arab kapitanlaridan biri uni o'z kemasiga olishga rozilik beradi. Bu sayohat davrida Kovilyan va uning sheriklari Modagaskar orolida ham bo'ladilar. Misrga qaytgach Kovilyan Portugaliya hukumatiga xat yozib o'z sayohatini to'liq bayon qiladi. Uning yozgan xatidagi ma'lumotlar Bartolomeu Diashning Janubiy Afrikada Dengiz yo'li orqali Hindistonga borish mumkin, degan fikrini tasdiqlar edi. Kovilyan xatidagi ma'lumotdan so'ng 1490 yilda Bartolomeu Diash tomonidan ochilgan hududlar xaritada belgilandi va shu narsa aniq bo'ldiki, Lissabondan Afrikaning eng chekka nuqtasiga faqatgina Atlantika okeani orqali borish mumkin ekan. Xristofor Kolumb dengizda yaxshi suzish malakasini O'rta Yer dengizida o'rganadi. Shuningdek, u xarita chizish va tuzishni, geografiya, matematika va astronomiyani qunt bilan o'rgandi. Xuddi shu davrda Xristofor uzoq dengiz safarining rejalarini tayyorladi. U o'z safarini amalga oshirish maqsadida Yevropada birinchi bo'lib jahon xaritasini tuzgan florensiyalik Paolo Toskanello bilan aloqa o'rnatdi. Toskanello unga xat orqali o'zi tuzgan xaritaning bir nus'hasini yuboradi. Kolumb bu xaritani o'rganib chiqdi va 1481 yil oxiri – 1482 yil boshlarida Toskanelloga katta hayajon bilan xat yozib, yana ham ko'proq ma'lumotlar yuborishni so'raydi. Xristofor Kolumbning istaklari o'sha davrdagi Ispaniya va Portugaliya qirollari manfaatiga mos tushgan edi. Bu davlatlar xukmdorlari ham geografik kashfiyotlar natijasida yangi yerlarga ega bo'lish va xazinani oltinga to'ldirishni orzu qilardilar. Shu maqsadda ispan va portugal kemalari Afrika qirg'oqlarini kezib yurardilar. 1484 yil Portugaliyada «matematiklar kengashi» tuzilib, unga rejalashtirilgan dengiz sayohatlarining loyihalarini muhokama qilish va amalga oshirish vazifasi yuklatildi. Xristofor Kolumb ham afsonaviy Sipanga (Yaponiya) va Hindiston orollariga G'arbiy Okean orqali sayohat qilish loyihasini tuzdi va o'z loyihasini Portugaliya qiroli Juan II ga taqdim etdi. Juan II bu loyihani «matematiklar kengashi» ga yubordi. Kengash Kolumbni hayolparast deb loyihasini qaytardi. Bundan

tashqari Portugaliya qiroli Juan II ga Kolumbning o'zi uchun katta mukofot talab qilishi ham yoqmagani edi. Bundan ranjigan Xristofor Kolumb o'z rejalarini Ispaniya qiroli yordamida amalga oshirish maqsadida 1485 yilda Ispaniyaga ko'chib ketdi. Bundan tashqari u yerni dumaloq degani uchun din ahllari tomonidan ham ayblanishi Kolumbning ko'chishini tezlashtirgan omillardan biri bo'ldi. 1486 yilda Kordovada yashagan yillari Kolumb boy dehqonning qizi-Anna Nunyes Arama bilan tanishib, undan Fernando ismli o'g'il ko'radi. Fernando keyinchalik yirik kosmograf va «Admiral Xristofor Kolumbning hayoti va ishlari tarixi»ning muallifi bo'ldi. Ispaniyaga kelgan Kolumb 1492 yilda o'z loyihasini Ferdinand va Izabellaga taklif qildi. Loyiha Ispan hukmdorlariga ma'qul keldi. Ispan hukmdorlari tomonidan 1492 yil aprel oyida Kolumbga dvoryanlik unvoni berildi va shu paytdan e'tiboran «don Kristoval Kolon» degan ism oldi. Ispan qirollari «Dengiz va okeanlarning xo'jayinlari sifatida Kolumbni» «o'zi kashf etgan barcha orol va materiklarning admirali»², vise – qiroldir deb e'lon qiladilar va bu unvonni abadiy uning vorislariga berishga ham rozilik bildirdilar. Buning evaziga Kolumb kashf qilgan joylaridan topilgan oltin va qimmatbaho buyumlarning o'ndan to'qqiz qismini qiroldir xazinasiga topshirishi kerak edi. Kolumb ixtiyoriga ikkita kema berildi. Kolumb uchinchi kemani ham safarga tayyorladi. Bu ish uchun mablag' to'plashda unga paloslik mohir dengizchilar, aka – uka Pinsonlar yordam berdilar. Natijada, 1492 yilda (3 avgust) Ispaniyaning Palos gavanidan Xristofor Kolumbning birinchi dunyo sayohati boshlandi. Eng katta kema «Santa Mariya»da admirallik bayrog'i ko'tarildi va unga Kolumbning o'zi boshchilik qildi. Ikkinchi kema nomi «Pinto» bo'lib unga Martin Pinson kapitan etib tayinlandi. Uchinchisidiki «Ninya» - («Go'dak») bo'lib, unga Martin Pinsonning ukasi Visente Pinson kapitan qilib tayinlandi. Butun uchta kema ekipaji 90 kishidan iborat edi. Kemalar ekipaji Palos aholisi orasidan majburan tanlanadi. Shuningdek ekipajning bir qismi oliy zotlarni haqorat qilganliklari uchun bir yillik surgun ishlariga mahkum qilinganlar va jinoyatchilardan tarkib topgan edi. Kolumbning birinchi ekspeditsiyasi qanday maqsadni ko'zlagan edi, degan savolga turli manba va ma'lumotlarda turlicha javoblar mavjud. Ayrim ma'lumotlarda Kolumbning asosiy maqsadi Osiyoga borish va u yerdagi xalqlar bilan savdo aloqalarining yo'lga qo'yish edi, deyiladi. Ayrimlarida esa, bu safardan maqsad Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan o'lja undirish edi, deb ko'rsatiladi. Kolumbning birinchi ekspeditsiyasi ekipaji tarkibi xristian bo'lmagan mamlakat bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yish uchun tanlab olingan edi, deyishda ham qisman jon borligini ko'rsatadi. Yirik bosqinchilik tadbirlari uchun ushbu floteliya ko'zlanmagan edi: u zaif qurollangan, ekipaj soni esa ozchilikni tashkil etardi. Bundan tashqari ular orasida professional harbiylar ham yo'q edi. Shuningdek bu ekspeditsiya o'z oldiga xristian dinini targ'ib qilishni ham maqsad qilib qo'ymagan edi, ekspeditsiya ishtirokchilari orasida birorta ham ruhoniylar va monaxlar yo'q edi. Bu holatni ushbu mavzuni o'rgangan

barcha tarixchilar e'tirof etishadi. Aksincha, Kolumb odamlari ichida cho'qintirilgan yahudiy bo'lib, u arab tilini yaxshi bilar edi. Undan tilmoch sifatida foydalanmoqchi bo'lishganlar. Shunday qilib, qirollar ham Kolumb ham «Indiy»lar bilan savdo sohasidagi aloqalarni yo'lga qo'yish maqsadini ko'zlagan edi, degan fikrga ham kelish mumkin. Ammo bu fikr faqat Xristofor Kolumbning birinchi ekspeditsiyasi tarixiga tegishlidir. Birinchi uch kun davomidayoq kuchli dengiz bo'roni kemalarni ochiq okeanga olib chiqib ketdi va Xristofor Kolumb boshqarishni qo'ldan yo'qotdi. Keyingi kunlardagi kemalar tezligining nihoyat darajada tezlashishi ekipaj a'zolarini xavotirga tushirdi. Kolumb esa o'z kundaligida bosib o'tilgan masofaning ko'p qismini yashira boshladi. Masalan: 1492 yil 10 sentyabrda yozilgan ma'lumotda 60 mil masofa bosib o'tilganligi ma'lum qilindi. Bu ayrim adabiyotlarda «odamlarda qo'rquv xissini uyg'otmaslik» uchun qilingan tadbir edi, deb qaraladi. Shunisi kishining diqqatini o'ziga tortadikim, Xristofor Kolumb aniq yo'nalishni yo'qotgan vaqtda, ko'pincha kema ustidan uchib o'tadigan qushlar galasi ketidan suzishni buyuradi. Kolumb kundaligidagi yozuvlardan ma'lum bo'lishicha (masalan; 7-oktyabrda yozuvlardan-P.Sh) portugaliyaliklar qator orollarni aynan qushlar parvozini kuzatish oqibatida ochganlar. Dengizda aniq yo'nalishni yo'qotgan Xristofor Kolumb ekspeditsiyasi 1492 yilning 12-oktyabr kuni Karib dengizida Bagam orollaridan birini topdi. Xristofor Kolumb orol (bu orol mahalliy xalq tomonidan Guanaxani deb atalgan) qirg'og'iga to'qnashishi bilan uni San – Salvador, ya'ni «Xaloskor avliyo» deb ataydi (bu orol hozirgacha shu nom bilan atalib kelmoqda). Kolumb va uning dengizchilari kemalaridan tushishdilar. Bu yerlik aholi ularni iliq kutib olishdi. Bu to'g'rida Kolumb o'zining yon daftarida shunday yozuvlar qoldirgan: «Men ularga arzimas sovg'alar berdim, ular juda mamnun bo'ldilar. Bizlarga to'ti qushlar, o'ram iplar va boshqa narsalar hadya qilishdi. Kishilari chiroyli, kelishgan, o'zlarini qora bo'yoqlar bilan chizib tashlagan, egnida hеч qanday kiyimi yo'q. Qurol – aslaha va temirlar haqida hatto biror bir tushunchaga ega emaslar». Mahalliy aholining ba'zi birlarining Kolumb burunilariga oltin baldoqlar taqib olganlarini payqadi. Ularning tushintirishlaricha oltin janub tomonda edi. Kolumb odamlari qayiqlarga o'tirib, oltin izlab boshqa orollarni ham topdilar. Ular tomonidan kashf qilingan Bagam orollaridan biriga Izabella (hozir Krukad - Ayland) deb nom berildi. Bu yerdagi aholi bir oz madaniylashgan ko'rinishda edi. Ularda yengil – yelpi kiyimlar, ba'zi ayollarda taqinchoqlar ham bor edi. Bu yerdagi g'aroyib o'simliklar, mevalar Kolumbni hayratda qoldirdi, chunki ilgari u bunaqa narsalarini uchratmagan edi. Shundan so'ng ular Kuba orollarini kashf qildilar. Xristofor Kolumb mahalliy aholining tilida «Kubo oroli» deb atalgan hozirgi Kubaga 1492 yilning 28-oktyabrda yetib keldi. Orol juda katta bo'lib, bu yerdagi katta – katta uylarda yuzlab odamlar birgalikda yashar edilar. Yevropaliklar bu yerda tamaki chekishni, paxtadan qo'pol matolar to'qilishini, madaniy o'simliklardan esa makkajo'xori va kartoshkani ko'rdilar. Ammo bu yerlarning qayer ekanligini bilmagan

Kolumb o'zini Xitoyning yarim orollaridan birini ochdim, deb o'yladi. Ammo bu yerda oltin ham, shaharlar ham, podsholiklar ham yo'q edi. Kuba orollarida yevropaliklar juda ko'p ekin turlarini ko'rdilar, ammo paxtadan boshqa hech qaysi o'simlikni tanimadilar. Mahalliy aholi ularga chekish uchun barglar olib chiqdilar va yevropaliklar tamaki chekishni birinchi marta ko'rdilar. Undan tashqari sayohatchilar bu yerda makkajo'xori va kartoshka ekinlari bilan ham tanishdilar. 1492 yilning dekabr oyida Gaitida Kolumb katta bir orolni topdi va unga Espanola «Kichik Ispaniya» deb nom qo'ydi. Bu orolda boshqa orollarga qaraganda oltin ko'proq uchradi. Shu sababli ekipajning 39 a'zosi o'z hohishlari bilan shu orolda qoldilar. Bu orolda Kolumb doimiy koloniyaga asos soldi. Bu yerda holokatga uchragan «Santa - Mariya» ni Espanoloda qoldirib Xristofor Kolumb 1493 yil «Ninya» kemasida Ispaniya tomon yo'l oldi. U bilan birga «Pinto» ham yo'lga chiqdi. (Kolumbdan so'ng Palos portiga yetib kelgan «Pinto» kemasining kapitani bir necha kundan keyin vafot etdi.). 1493 yilning mart oyida Xristofor Kolumb Ispaniyaga bir oz oltin va Yevropada hali hech kimga ma'lum bo'lmagan orol aholisidan bir necha kishini olib keldi. Xristofor Kolumb o'zi kashf etgan yerlarni Hindistonning bir burchagi bo'lsa kerak deb o'ylab ularni «Indiy» deb atadi. Ispaniyaga olib kelgan kishilarni «indios» «indeyes» (hindular) deb atay boshladilar. Hozirgacha ham Amerikaning tub joy aholisini «indeyes»lar ya'ni «hindular» deb aytib keladilar. Kolumb tomonidan «g'arbiy Hindiston»ning kashf etilishi to'g'risidagi ma'lumotlar portugaliyaliklarni sarosimaga solib qo'ydi. Shundan so'ng darhol 17 ta kema, shu jumladan 3 ta katta kemadan iborat yangi floteliya tuzildi. Bu kemalarda 1500 kishi safarga otlandi. Bu ikkinchi dengiz safarining boshlanishi edi. Eng katta kema bo'lgan «Mariya Galante» (Golonte)da Kolumb admiral bayrog'ini ko'tardi. Bu kemalarga o'sha vaqtda Yevropada mavjud bo'lgan barcha chorva mollari, otlar va eshaklar kelgusida yangi orollarda ko'paytirish uchun ortildi. Shuningdek ayrim o'simlik urug'lari ham olindi. Kolumb bilan birga yangi yerlarda baxt topish uchun o'zi qashshoqlashib qolgan bo'lsada hali g'ururdan tushmagan yuzlab dvoryanlar, o'nlab amaldorlar, okeanning nargi tomonida yashovchi «majusiylar» ga xristian dinini qabul qildirish lozimligini maqsad qilib olgan ruhoniylar va monahlar safarga jo'nadilar. Turli manbalarda berilgan ma'lumotlarga ko'ra kemalarda 1,5 mingdan 2,5 minggacha kishi bo'lgan. 1493 yil 25 sentyabrida Kolumbning ikkinchi ekspeditsiyasi Kadis shahridan yo'lga chiqdi. Ikkinchi dengiz ekspeditsiyasi harbiy jihatdan ham puxta tayyorlandi. Uning harbiy kuchlariga Las Kasosning amakisi Fransisko de Penyalasa qo'mondonlik qildi. Ikkinchi sayohati vaqtida Kolumb Janubiy Amerikadagi bir qancha orollarni ochib, ularga «Dominiko» (kashfiyot yakshanba kuni qilingan edi. ispancha yakshanba - dominika), «Gvadalupa» (Gvadelupa) (Bu mashhur ispan monastiri sharafiga qo'yilgan), «Virgin» («O'n bir ming qiz oroli» - ispancha qiz - virxen), «Boriken» va «San-Xuan - Bautista» deb nom

berdi. Keyinchalik «San-Xuan - Bautista» oroliga «Puerto Riko» (Boy ko'rfaz) deb nom beriladi.

Xulosa:

Shundan so'ng u yana Espanologa o'tdi. Bu yerda o'zlari qurdirgan Navidad fortining vayron bo'lgan manzarasini va o'zi qoldirgan odamlarning (39 kishining) murdasini suvdan topdi. Mahalliy aholidan yetarli darajada o'ch olib bo'lgach, Kolumb Espanolo orolida Izabella degan shahar qurdiradi. Ammo tezda bu yerda yuqumli kasallik tarqaldi va Kolumb odamlarining bir qismi ham qirilib ketdi. Kasallik tarqalishining kuchayishi yevropaliklarni orolning janubiy qirg'og'iga ko'chishga majbur qildi va 1496 yilda shu yerda Santo – Domingo (hozirgi Nofid - Truxilo) shahriga asos solindi. Keyinchalik bu shahar orolning poytaxti bo'lib qoldi. Ammo sharoitning noqulayligi tufayli dengizchilar oziq-ovqatni yaxshi saqlay olmaydilar. Shu sababli ularga ocharchilik xavf sola boshlaydi. Kolumb noilojlikdan Antonio Torres boshchiligida 12 kemani Ispaniyaga qaytarib yuborishga majbur bo'ldi. U Ispaniya hukmdorlariga yozgan xatida bu yerda ko'p miqdorda oltin borligidan xabar beradi va ulardan o'zlariga zarur oziq-ovqat, chorva mollari va mehnat qurollarini yuborishni so'raydi. Kolumb 500ga yaqin kishini 5 ta kema bilan Espanoloda qoldirishga qaror qildi, qolgan kishilarni 12 kemada 1494 yilning boshlarida Ispaniyaga qaytarib yubordi. Kolumb Ispaniyadan chorva mollari, oziq-ovqat va qishloq xo'jalik asboblari orilgan kemalar yuborishni so'radi. Ikkinchi ekspeditsiyasi davrida Kolumb Ispaniyaga bir oz oltin, mis, qimmatbaho yog'och va bir necha yuz «hindu» qullarni jo'natdi. Lekin bu yuborilgan narsalar uning ekspeditsiyasiga ketgan harajatlardan juda kam edi. Shu sababli qirollar u bilan tuzgan shartnomani buzdilar va oziq – ovqat hamda boshqa kerakli narsalarni yubormay qo'ydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Магидович В. И. Очерки по истории географических открытий. Т. II. Москва-1983[1]
2. Olimjon Bo'riyev Tarixiy geografiya Toshkent-2017[2]
3. Z.Sayidboboyev Tarixiy geografiya Toshkent-2019[3]
4. A.Mamadiyorov.Sh.Ibragimov.Q.Sag'dullayev.M.Sattorov Geografiya Toshkent-2020[4]